

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETINING ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALI ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**DUSHANOV RUSTAM XUJANOVICH**

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI  
SUBYEKTLARINING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**19.00.03 – Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (yuridik psixologiya)**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Dushanov Rustam Xujanovich**

Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlar..... 3

**Душанов Рустам Хужанович**

Психологические аспекты субъектов оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел..... 33

**Dushanov Rustam Khuzhanovich**

Psychological aspekts of subjects in operational-search activity of internal affairs organs ..... 65

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 71

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETINING ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALI ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**DUSHANOV RUSTAM XUJANOVICH**

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI  
SUBYEKTLARINING PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**19.00.03 – Inson kasbiy faoliyati psixologiyasi (yuridik psixologiya)**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fan doktori (DSs) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/P43 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy konsultant:  
Rasmiy opponentlar:**

**Shoumarov G‘ayrat Baxromovich**  
psixologiya fanlari doktori, akademik

**Hayitov Oybek Eshboevich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Sattorov Erkin Niyazmetovich**  
psixologiya fanlari doktori, dotsent

**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy darajalar beruvchi Phd.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martali Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, CHilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, CHilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi.)

**F.A. Akramova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, psixologiya fanlari doktori,  
professor

**N.B. Atabayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori,  
professor

**Z.T. Nishanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ijtimoiy hayot sohalari, jinoyatning subyektiv jihati, jinoyat motivlari va maqsadi, jinoyatning sodir etish shart-sharoitiga ko'ra kengayib borayotganligi huquqni muhofaza qilish tizimidagi kadrlarning professionallashuviga va jinoyatchilikka qarshi kurashishda psixologik jihatdan tayyorligi masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda. Shuning uchun «...Tezkor-qidiruv faoliyati Ichki ishlar vazirligining ko'plab bo'limlari, masalan, jinoiy tergov, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, iqtisodiy jinoyatlar, tezkor-qidiruv bo'limlari faoliyatini tashkil etishdagi ustuvor yo'nalish ekanligini inobatga olish, jinoyatlarning oldini olishda muhim professional tayyorgarlikka ehtiyoj tug'dirishi...»<sup>1</sup> shubhasiz, zarurdir. Bu borada tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishga kasbiy va psixologik tayyorgarligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish, ochish, jinoyatchilarni aniqlash hamda hibsga olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda shaxsiy-kasbiy mahoratini tarkib toptirish orqali faoliyat natijadorligini ta'minlash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda turli soha mutaxassislarining kasbiy-shaxsiy kamolotini ta'minlash, individual-psixologik jihatlarini rivojlantirish va shaxsning psixologik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish borasida ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, tezkor-qidiruv faoliyati samaradorligiga xizmat qiluvchi muloqotmandlik, odamlar bilan muloqot qilish xohish va ko'nikmasini, suhbatdoshdagi ilg'ash qiyin bo'lgan ovoz tonidagi, imo-ishorasi va mimikasidagi o'zgarishlarni aniqlashni ta'minlovchi kuzatuvchanlik, psixologik barqarorlik va o'ziga ishonch, tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining shaxsiy-kasbiy ahamiyatga ega psixologik jihatlarini, tezkor-qidiruv faoliyati uchun zarur qobiliyatlarini aniqlash va ularni kasbiy faoliyat jarayonida kamol toptirish va psixologik ta'sir usullarini ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirilgan strategik vazifalar belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish. ... eng ustuvor vazifa bo'lib qoladi ... », «huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarini hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish... », «... Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish»<sup>2</sup> tamoyiliga ko'ra, ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini yoritish

<sup>1</sup> Алексеев В.В. и др. Правовые основы оперативно-розыскной деятельности: учебное пособие.-М. ЮНИТИ-ДАНА.-2017. С.7.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni amalga oshirish uchun mazkur tadqiqot muhim asos bo`la oladi.

O`zbekiston Respublikasining 2023 yil 1 maydagi O`RQ-837-son «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to`g`risida» Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida», 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son «Ichki ishlar organlarining faoliyat samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta`minlashda ularning mas`uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmonlar, 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son «Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo`naltirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida», 2021-yil 15-apreldagi PQ-5076-son «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo`yicha chora-tadbirlar to`g`risida», 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son «Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida», 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3216-son «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarorlar, O`zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to`g`risida», 2012 yil 25 dekabrdagi «Tezkor-qidiruv faoliyati to`g`risida»gi Qonunlar, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori hamda faoliyatga oid boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko`lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma`naviy-ma`rifiy rivojlantirishda innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo`llari» ustuvor yo`nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo`yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini tadqiq etishga yo`naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning quyidagi yetakchi ta`lim tashkilotlari va ilmiy markazlarida, jumladan: Adliya milliy instituti (Amerika Qo`shma Shtatlari); Politsiya ofitserlarining milliy oliy maktabi (Fransiya); Politsiya fanlari milliy tadqiqot instituti (Yaponiya); Pekin universiteti (Xitoy); Tel-Aviv universiteti (Isroil); Rossiya Ichki ishlar vazirligi Butunrossiya ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federatsiyasi); Rossiya Ichki ishlar vazirligi Moskva universiteti (Rossiya Federatsiyasi) va Rossiya Ichki ishlar vazirligi Omsk akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi)da olib borilmoqda.

---

<sup>3</sup> <https://nij.ojp.gov/>, <https://www.ensp.interieur.gouv.fr/index.php>, <https://www.npa.go.jp/nrips/en/>, <https://english.pku.edu.cn/>, <https://english.tau.ac.il/>, <https://ru.wikipedia.org/wiki/>, <https://ru.wikipedia.org/wiki/> va boshqa manbalar.

Jahonda ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlari muammolarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: jinoyatlarning oldini olish va ularni tezkor aniqlash bo'yicha dasturlar huquqni muhofaza qilish va axloq tuzatish muassasalarini, shuningdek, kriminologiya, jinoiy xulq-atvor xossalarini o'rganuvchi xodimlar faoliyatini tizimlashtirish asosida yaratilgan (Adliya milliy instituti, Amerika Qo'shma Shtatlari); Politsiyachilarni kasbiy shakllantirish milliy oliy markazini tashkil etish orqali xodimlarning xavfsizligi va xizmat faoliyatiga moslashuvini ta'minlash usullari yaratilgan (Politsiya ofitserlarining milliy oliy maktabi, Fransiya); axborot texnologiyalarni, faoliyatni identifikatsiyalash va tahlil qilish usullarini tatbiq etish orqali tezkor-qidiruv xodimlari faoliyatini amalga oshirish tartibi takomillashtirilgan (Politsiya fanlari milliy tadqiqot instituti, Yaponiya); politsiya xodimlarining kasbiy tayyorgarlik nazariyasi (boshqaruv, tinchlik o'rnatish, jinoiy protsessual, umumiy va maxsus jinoyat qonuni, ma'muriy huquqning ba'zi elementlari, sud ijrochisini yollash va o'qitish) bilan amaliy (jang san'ati va o'zini himoya qilish, o'q otish, turli sport mashg'ulotlari, shu jumladan chidamlilik mashg'ulotlari) ta'lim dasturlarini uyg'unlashtirish asosida xodimlar kasbiy kamolot tizimi shakllantirilgan (Tel-Aviv universiteti, Isroil); jinoyatchilikka qarshi kurashishning davlat konsepsiyasini ishlab chiqilishiga tayanib, Ichki ishlar vazirligining tezkor-qidiruv xizmat ko'rsatish faoliyatini strategik rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari aniqlangan (Rossiya Ichki ishlar vazirligi Butunrossiya ilmiy-tadqiqot instituti, Rossiya Federatsiyasi); axborot xavfsizligi sohasi texnologiyalarini tatbiq etishni yo'lga qo'yish orqali tezkor politsiya bo'linmalari uchun xodimlarni va jamoat tartibini, xalqaro huquqni muhofaza qilish bo'yicha politsiya xodimlarini samarali tayyorlash usullari aniqlangan (Rossiya Ichki ishlar vazirligi Moskva universiteti, Rossiya Federatsiyasi); amaliyotdagi xodimlar tajribasini joriy etish usullarini tatbiq etish orqali tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarini kasbiy tayyorlash usullari takomillashtirilgan (Rossiya Ichki ishlar vazirligi Omsk akademiyasi, Rossiya Federatsiyasi).

Jahonda politsiya va ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv sohasi xodimlari faoliyatining psixologik jihatdan samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari imkoniyatlarini samarali qo'llashni ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillarni aniqlash orqali yangicha psixologik usullarni taklif etish; kasbiy rivojlanish yo'llariga salbiy omillar ta'sirini hisobga olgan holda faoliyatni amalga oshirish; xodimning professional faoliyatini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi individual-psixologik, differensial-psixologik darajadagi omillarni o'rganish orqali tezkor-qidiruv soha xodimlarining kasbiy o'sishiga ahamiyat berish; shaxsiy-kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga ko'ra kasbiy faoliyat jarayonini tashkillashtirish; uning shaxsiy-kasbiy motivatsiyalari, kommunikativ, xarakterologik, irodaviy sifatlari, mas'uliyatlilik, faollik omillari, nizoli vaziyatlarda xulq-atvorni samarali boshqarish uslublarini tatbiq etish asosida kasbiy faoliyatni psixologik jihatdan takomillashtirish kabilar shular jumlasidandir.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining huquqiy va psixologik jihatlari mamlakatimiz olimlaridan Y.Y. Agzamova, I.X. Arifxodjayeva, M.X.Axmedova, V. Karimov, A.A. Matchanov,

R.M. Maxmudov, G.A. Normurodov, A.X. Sattarov, V.G. Shepotkin, I.R. Ergashev, A.A. Xamdamov va boshqalar<sup>4</sup>ning ilmiy ishlarida mavzu doirasidagi nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.K.Alekseyev, G.K.Sinilov, D.V.Grebelskiy, V.V.Golovach, I.A.Klimov, O.G.Kovalev, Y.V.Naumkina, A.M.Stolyarenko, R.Ronin, Y.V.Chufarovskiy<sup>5</sup> va boshqalar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyat subyektlarining psixologik jihatlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinib, muammo doirasida tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan politsiya (ichki ishlar organlari) tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini Douglas William Green, Spangenberg, Francis E., Wayne A. Wallace, Schaufeli W.B., Piotr Sztompka Trust, Grover Mauricearning ilmiy ishlarida ma'lum darajada soha uchun zarur bo'lgan izlanishlar olib borilgan<sup>6</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsion tadqiqot Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining И-ОТ-2021-67 raqamli «Ekstremal vaziyatga tushgan insonlarda ijtimoiy-tibbiy psixologik immunitetni shakllantirish uchun axborot platformasini yaratish» mavzusidagi innovasion loyiha doirasida bajarilgan (2020 - 2021 y.y.).

---

<sup>4</sup> *Аззамова Е.Ю.* Факторы, определяющие проявления индивидуально-психологических особенностей личности сотрудников органов внутренних дел: Дис. ...канд. психол. наук. – Т., 2001. – 160 с.; *Arifxodjayeva I.X.* Ichki ishlar idoralari serjantlar tarkibi faoliyatini takomillashtirishning psixologik omillari: Psixol. fan. nomz. dis. – Т., 2011. – 195 b.; *Axmedova M.X.* Jinsiy tajovuzkorlik sodir etganda jinoyatchi shaxslarning psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. dis. avtoref. – Т., 2007. – 22 b.; *Karimov V.* Tezkor-qidiruv faoliyatida qonunchilikni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish: Yurid. fan. d-ri dis. avtoref. – Т., 2018. – 65 b.; *Matchanov A.A.* Jinoyat sodir etgan shaxslar qidiruvini takomillashtirishning jinoyat-protsessual va kriminalistik jihatlarini: Yurid. fan. d-ri (DSc) dis. avtoref. – Т., 2019. – 65 b.; *Maxmudov R.M.* Shaxs huquqiy ijtimoiylashuvining nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. d-ri ... dis. – Т., 2011. – 308 b.; *Normurodov G.A.* Gumon qilinayotgan voyaga yetmagan o'smirlarni so'roq qilishning psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. dis. avtoref. – Т., 2007. – 22 b.; *Sattarov A.X.* Ichki ishlar idoralari faoliyatida inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning nazariy va amaliy muammolari: Yurid. fan. d-ri ... dis. avtoref. – Т., 2002. – 42 b.; *Щепоткин В.Г.* Психологические аспекты укрепления законности в следственной деятельности. Дис. ... канд. психол. наук. – Т., 1992 – 184 с.; *Эргашев И.Р.* Психология профессионального общения следователя с участниками предварительного следствия: Автореф. дис. канд. психол. наук. – Т., 2001. – 23 с.; *Хамдамов А.А.* Теоретические, правовые и организационно-тактические основы борьбы с хищениями чужого имущества, совершаемые организованными группами: Дис.... докт. юрид. наук. – Т., 2009. – 452 с.

<sup>5</sup> *Алексеев А.К., Синилов Г.К.* Актуальные проблемы теории оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел. М., 1973. С. 224.; *Гребельский Д.В.* Об исходных положениях для разработки новой программы курса Оперативно-розыскная деятельность органов внутренних дел //Труды ВШ МВД СССР, 1969. С.100.; *Головач В.В.* Психологическая диагностика личностных качеств негласных сотрудников. Учебное пособие Киев.1989 – 43 с.; *Климов И.А., Ковалев О.Г.* Психология оперативно-розыскной деятельности // Психология. Педагогика. Этика: Учебник для вузов / Под ред. проф. Ю.В. Наумкина. М., 2012. – 275 с.; *Столяренко А.М.* Психологическая подготовка сотрудников органов внутренних дел. М., 1988. – 245 с.; *Ронин Р.* Своя разведка: способы вербовки агентуры, методы проникновения в психику, форсированное воздействие на личность, технические средства скрытого наблюдения и съема информации: Практическое пособие. - Минск, 1997. 221 с.; *Чуфаровский Ю.В.* Психология оперативно-розыскной и следственной деятельности: Учебное пособие / Ю. Чуфаровский. - М.: Проспект, 2019. - 208 с.

<sup>6</sup> *Green, Douglas William,* Traumatic Stress, World Assumptions, and Law Enforcement Officers: Dissertation Ph.D. CUNY Academic Works City University of New York Follow Date of Degree. – 2016. , *Spangenberg, Francis E.,* Characteristics of Newly-hired Members of the New York City Police Department as Predictors of Subsequent Job Performance (2016). CUNY Academic Works. [https://academicworks.cuny.edu/gc\\_etds/1255](https://academicworks.cuny.edu/gc_etds/1255).; *Wayne A. Wallace* The Effect of Confirmation Bias on Criminal Investigative Decision Making Dissertation Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy Walden University. College of Social and Behavioral Sciences 2015. – 210 p.; *Schaufeli, W.B.* The burnout companion to study and practice: A critical analysis / W.B. Schaufeli, D. Enzmann. - Washington DC: Taylor & France, 1998. – 220 p., *Piotr Sztompka,* Trust: a sociological theory. Cambridge: Cambridge university press, 1999. – 214 p.; *Grover Maurice Godwin,* Criminal psychology and forensic technology A Collaborative Approach to Effective Profiling Edited by Grover Maurice Godwin, Ph.D. Research Assistant Professor Justice Center The University of Alaska – Anchorage Boca Raton London New York Washington, D.C. CRC Press 2001 CRC Press LLC – 350 p.; Grover Maurice Godwin, Hunting Serial Predators A Multivariate Classification Approach to Profiling Violent Behavior Grover Maurice Godwin, Ph.D. Raleigh, North Carolina 2000– 319 p.

**Tadqiqotning maqsadi** ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini ilmiy-nazariy tadqiq qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarini shaxsiy differensial-semantik tahlil asosida kasbiy-shaxsiy ahamiyatli jihatlarini tavsiflovchi yetakchi omillarni aniqlash;

ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy motivatsiya profili va kasbiy-shaxsiy talabchanlik jihatlarini aniqlash;

tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy tajribalari dinamikasida kasbiy faoliyatdagi nizolar va xavotirlanishlarni bartaraf etish usullaridan foydalanishni sub'ektiv nazoratining ustuvor jabhalarini empirik isbotlash;

tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishi orqali tayyorlanayotgan va niqoblangan jinoyatlarning oldini olish imkoniyatlarini kuchaytiruvchi psixologik jihatlarini aniqlash;

ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy-shaxsiy kamolotini ta'minlovchi jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini o'zida jamlagan mutaxassislik professiogrammasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini aniqlash jarayoni bo'lib, tadqiqotga Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyat ichki ishlar bosh boshqarmalarida xizmat olib borayotgan 120 nafar tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari hamda jinoyatchilikka qarshi kurashda ichki ishlar organlariga rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxs (jabrlanuvchi va guvoh)lar va ular yordamidan foydalanayotgan 104 nafar tezkor bo'linmalar ekspert xodimlardan iborat, jami 224 nafar respondentlar jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida suhbat, hujjatlarni o'rganish, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS) metodlari, J.Teylorning «Xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi, Ch.Osgudning «Shaxsiy semantik differensial» metodikasi, V.V.Golovachning «Shaxsiy differensiallikni o'rganish» metodikasi, G.Ayzenkning EPI so'rovnomasi (E.G'.G'oziyev, R.Toshimov modifikatsiyasi), Sh.Richi, P.Martinlarning «Shaxsning motivatsion profilini o'rganish» metodikasi, B.A.Yasko, Y.V.Xaritonovalarning «Shaxsning kasbiy talabchanlik» metodikasi, K.N.Tomasning «Shaxs so'rovnomasi» (K.V.Grishina modifikatsiyasi), Dj.Rotterning «Subyektiv nazorat darajasini o'rganish» metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan: Mann-Uitnining U-mezoni, Kraskal-Uollisning N-mezoni, Ch.Spirmenning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarida qadriyatlar tizimi, regulyativ sohasi, individual-psixologik jihatlarini va ijtimoiy tajribalarini integratsiyalashtirish orqali kasbiy dispozitsiyani shakllantirishda shaxsiy differensial maydonning adolatlilik (baho), qat'iyatlilik, shijoatlilik, o'ziga ishonganlik, mustaqillik (kuch) va g'ayratlilik

(faollik) komponentlari xodimlar xulq-atvori barqarorligini ta'minlashning yetakchi omillari ekanligi aniqlangan;

sotsial aloqalarga salohiyatlilikning barqaror munosabatlar omili sifatida e'tirof etilishi, jur'atlik, jasurlik, kreativlik esa o'zini o'zi kamol toptirtiruvchi kabi intrensiv motivlar ta'sirida o'zlariga nisbatan talabchanlikning o'sib borishi sababli tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida «inson – jamiyat – inson» munosabatlarining rivojlantirilishi natijasida ularning murakkab xizmat vazifalarini ishonchli va jasorat bilan bajarish imkoniyatlarini kuchaytirganligi empirik dalillangan;

kasbiy tajribalarining ortib borishi hisobiga vaziyatlarga moslashish va hamkorlik usullaridan foydalanishni o'zlashtirishlari sababli faoliyatdagi nizolarni bartaraf etishda konsensusga va xavotirlanishni susaytirishga erishishlarida muvaffaqiyatga, muvaffaqiyatsizlikka va salomatlikka nisbatan internalliklar tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida ustuvor subyektiv nazorat jabhalari sifatida shakllanishi isbotlangan;

ishlovga olingan shaxs bilan ishonchli psixologik aloqa o'rnatishda ularning rejalari, maqsadlari, qadriyatlarini, ehtiyojlari, ustanovka va motivatsiyalarini aniqlashning ekstren usullariga tayanishlari orqali tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlanishi xodimlarni ko'plab puxta tayyorlanayotgan va niqoblangan jinoyatlarning oldini olish imkoniyatlarini kuchaytirishi aniqlangan;

jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati mutaxassislari kasbiy faoliyatini optimallashtirish uchun ularning kasbiy-shaxsiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim kasbiy-shaxsiy, individual sifatlarini aniqlovchilari va rivojlanish istiqbollari, kasbiy faoliyat predmeti va ob'ektining uyg'unlashtirishni, kasbiy ko'nikma va malakalarni, layoqatlar va afzalliklarni, kasbiy vazifalari va ish shakllarining boshqa kasblar bilan aloqadorligini hamda mutaxassislarni tayyorlash jarayonini tavsiflovchi professiogrammasi tizimli ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy-shaxsiy sifatlarini tavsiflovchi yetakchi omillar tizimlashtirilgan;

ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy talabchanlik va motivatsiyasini tadqiq etish metodikalari moslashtirilib amaliyotga kiritilgan;

ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining shaxslilik jihatlari, ijtimoiy-psixologik jihatlari hamda ichki ishlar organlariga rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning kasbiy yaroqliligi, razvedkachilik imkoniyati va xislatlarini tadqiq etishga mo'ljallangan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS) ishlab chiqilib, qo'llash uchun amaliyotga kiritilgan;

tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari psixologiyasini o'rganish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati oliy ta'lim muassasalarining kursant va tinglovchilari uchun darslik, o'quv qo'llanmalar yaratilgan;

ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari psixologiyasi tadqiqotining natijalarini amaliyotda qo'llash metod va metodikasi bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilib, faoliyatda aprobatsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, usullar va ilmiy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, ishonchli dalillardan olinganligi; respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiyalar va u haqdagi taqrizlar; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani; olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishga yangicha yondashuvlar asosida iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy-ma‘naviy muammolarni o‘rganish va tahlil qilish borasidagi ijtimoiy-psixologik bilimlarni ilmiy-uslubiy jihatdan kuchaytirish, shuningdek, tadqiqotda ishlab chiqilgan qator kategorial tushuncha va ta‘riflar yuridik psixologiya sohasidagi amaliy tadqiqotlar uchun ilmiy-uslubiy asosni joriy etishda, tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan nazariy xulosalar, keltirib o‘tilgan ilmiy ma‘lumotlar, materiallar, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Bojxona xizmati tizimida xodimlarni psixologik tayyorlash, o‘qitish, seminar-treninglar tashkil qilish kabi aniq amaliy taklif va tavsiyalardan tezkor-qidiruv, ayniqsa, yosh tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining tajribasini oshirish, shuningdek, ichki ishlar organlariga rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarni tanlash, ularning huquqiy-psixologik bilimlarini kengaytirishi, tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasiga oid bilimlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan turli tadbirlarda foydalanish mumkinligi, xodimlarning psixologik savodxonligini oshirishda «Umumiy psixologiya», «Kasbiy psixologiya», «Konfliktologiya va muomala psixologiyasi», «Tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasi» fanlaridan o‘quv qo‘llanma, darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida: tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarida qadriyatlar tizimi, reguliyativ sohasi, individual-psixologik xususiyatlari va ijtimoiy tajribalarini integratsiyalashtirish orqali kasbiy dispozitsiyani shakllantirishda shaxsiy differensial maydonning adolatlilik (baho), qat‘iyatlilik, shijoatlilik, o‘ziga ishonganlik, mustaqillik (kuch) va g‘ayratlilik (faollik) komponentlari xodimlar xulq-atvori barqarorligini ta‘minlashning yetakchi omillari ekanligi aniqlangan ma‘lumotlar Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 3-maydagi PM-128-son buyrug‘i bilan markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o‘quv rejasining «Yuridik psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-128-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarini shaxsiy differensial semantik tahlil asosida kasbiy-shaxsiy ahamiyatli xususiyatlarini tavsiflovchi yetakchi omillarni aniqlashtirilgan;

sotsial aloqalarga salohiyatlilikning barqaror munosabatlar omili sifatida e‘tirof etilishi, jur‘atlik, jasurlik, kreativlik esa o‘zini o‘zi kamol toptirtiruvchi kabi intrensiv

motivlar ta'sirida o'zlariga nisbatan talabchanlikning o'sib borishi sababli tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida «inson – jamiyat – inson» munosabatlarining rivojlantirilishi natijasida ularning murakkab xizmat vazifalarini ishonchli va jasorat bilan bajarish imkoniyatlarini kuchaytirganligi empirik dalillanganligi haqidagi ma'lumotlar Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 3-maydagi PM-128-son buyrug'i bilan markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining «Kasb psixologiyasi» moduli mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-128-a – son ma'lumotnomasi). Natijada ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy motivatsiya profili va kasbiy-shaxsiy talabchanlik xususiyatlarini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

kasbiy tajribalarining ortib borishi hisobida vaziyatlarga moslashish va hamkorlik usullaridan foydalanishni o'zlashtirishlari sababli faoliyatdagi nizolarni bartaraf etishda konsensusga va xavotirlanishni susaytirishga erishishlarida muvaffaqiyatga, muvaffaqiyatsizlikka va salomatlikka nisbatan internalliklar tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida ustuvor sub'ektiv nazorat jabhalari sifatida shakllanishi asoslangani haqidagi ma'lumotlar Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 3-maydagi PM-128-son buyrug'i bilan markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining «Yuridik psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-128-a – son hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 20-yanvardagi 22/71-son ma'lumotnomalari). Natijada tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy tajribalari dinamikasida kasbiy faoliyatdagi nizolar va xavotirlanishlarni bartaraf etish usullaridan foydalanishning sub'ektiv nazoratining ustuvor jabhalari takomillashtirilgan;

ishlovga olingan shaxs bilan ishonchli psixologik aloqa o'rnatishda ularning rejalari, maqsadlari, qadriyatlarini, ehtiyojlari, ustanovka va motivatsiyalarini aniqlashning ekstren usullariga tayanishlari orqali tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlanishi xodimlarni ko'plab puxta tayyorlanayotgan va niqoblangan jinoyatlarning oldini olish imkoniyatlarini kuchaytirishi aniqlanganligi bilan bog'liq ma'lumotlar Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 3-maydagi PM-128-son buyrug'i bilan markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining «Kasb psixologiyasi» moduli mazmuniga singdirilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida chop etilgan sohaga doir ma'ruzalar kursining 1-, 2-, 7-boblarida o'z aksini topgan bo'lib, undan o'quv jarayonida keng foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-128-a – son hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining 2022-yil 13-oktabrdagi 38/3-705-son ma'lumotnomalari). Natijada tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarning kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishi orqali tayyorlanayotgan va niqoblangan jinoyatlarning oldini olish imkoniyatlarini kuchaytiruvchi psixologik jihatlarni aniqlash imkoniyati yaratilgan.

jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati mutaxassislari kasbiy faoliyatini optimallashtirish uchun ularning kasbiy-shaxsiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim kasbiy-shaxsiy, individual sifatlarining aniqlovchilari va rivojlanish istiqbollari, kasbiy faoliyat predmeti va ob'ekting uyg'unlashtirishni, kasbiy ko'nikma va malakalarni, layoqatlar va afzalliklarni, kasbiy vazifalari va ish shakllarini, boshqa kasblar bilan aloqadorligini hamda mutaxassislarni tayyorlash jarayonini tavsiflovchi professiogrammasi tizimli ishlab chiqilgan takliflar Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 3-maydagi PM-128-son buyrug'i bilan markaz qoshidagi psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining «Kasb psixologiyasi» moduli mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-maydagi PM-128-a – son ma'lumotnomasi). Natijada ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy-shaxsiy kamolotini ta'minlovchi jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan mutaxassislik professiogrammasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, 11 ta OAK ro'yxatidan o'tgan jurnallarda, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida maqolalar nashr qilingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy hajmi 212 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning «**Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari psixologiyasining nazariy-metodologik talqini**» deb nomlangan birinchi bobining «Huquq tartibot organlari sohasida kadrlarni tayyorlashning ma'naviy-psixologik asoslari» nomli birinchi paragrafida o'tmish mutafakkirlarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar keng sharhlanib, ular qoldirgan boy ma'naviy merosga munosabat va ulardan bugungi kunda foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Xalqimizning ilk qo'lyozma asarlaridan biri bo'lmish «Avesto»da, Nizomulmulk asarlarida, Sohibqiron Amir Temur «Tuzuklari»da, Husayin Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy: yoxud javonmardlik tariqati» kabi asarlarda bayon etilgan va ilgari surilgan nazariy g'oyalardan bugungi kunda ichki ishlar organlarida ishlarni tashkil

qilishda foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Bu borada milliy qadriyatlarimizga e'tibor masalalari bayon etilgan.

So'nggi yillarda chet ellarda, sobiq Ittifoq respublikalari, jumladan, respublikamiz psixolog olimlarining mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlari muhokama qilingan va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.


Bobning ikkinchi paragrafi «Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari psixologiyasining genezisi, evolutsiyasi va rivojlanish bosqichlari» deb nomlanib, unda o'rganilayotgan masalaning genezisi, evolutsiyasi va rivojlanish bosqichlari bayon etilgan. Sud psixologiyasi, yuridik psixologiya kabi sohalarning rivojlanishiga munosib ulush qo'shgan psixolog olimlar: A.R. Ratinov, A.V. Dulov, V.L. Vasilyev, D.V. Grebelskiy, A.I. Alekseyev, V.A. Cherepanov va boshqalarning ishlari sharhlangan. Amalga oshirilgan sharh asosida oldinga qo'yilgan vazifalar bajarilgan. Shuningdek, mazkur paragrafda tezkor-qidiruv faoliyati psixologiyasining qonuniyatlari va prinsiplari ko'rsatib berilgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi «Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari psixologiyasini o'rganish metodlari» deb nomlangan bo'lib, unda nomzodlarni o'rganishda psixodiagnostik metodlardan foydalanish qoidalari bayon etilgan.

Bob yakunida esa unda bayon etilgan masalalar yuzasidan xulosalar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «**Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining shaxsiy-kasbiy ahamiyatga molik psixologik jihatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida ushbu sohada amal qilinadigan rasmiy hujjatlarda e'lon qilingan, ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlari o'rganilgan.


Mazkur bobning birinchi paragrafi «Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining shaxsiy-kasbiy jihatlari empirik o'rganish» deb nomlangan, unda tezkor xodim shaxsining psixologik xususiyatlari, ya'ni o'zini o'zi anglash, shaxsiy va kasbiy sifatlari, chidamlilik, o'z hissiyotlarini boshqara olish, oqilona tavakkalchilik, turli ijtimoiy rollarga kira bilish, maxfiylik tartibiga rioya qilish, razvedkachilik qobiliyati va imkoniyatlari, muloqotmandligi, kasbiy kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur, ijodiy xayol kabi ko'nikmalari hamda xavotirlanish darajasi bir qator psixodiagnostik metodikalar yordamida o'rganilgan va tahlil qilingan, *1-rasmga qarang*.



**1-rasm. Tezkor xodim shaxsining shaxsiy-kasbiy sifatlari**

Mazkur paragrafda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot asosida tezkor xodim shaxsining psixologik tuzilishi, uning kasbiy yo‘nalganligi, ijtimoiy tajribasi, o‘zini o‘zi boshqarishi, shaxsiy sifatlari, temperamenti, xarakteri, qobiliyati psixologik jihatlarini tavsiflovchi murakkab shaxslararo munosabatlar majmui ifodalangan, natijalar 2-rasmda berilgan.

Olingan ma’lumotlardan kelib chiqib, ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy faoliyatiga, jismoniy va ruhiy-irodaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan hissiy-emotsional zo‘riqish holatlarida amalga oshadigan o‘ziga xos faoliyat turini kuzatish mumkinligi e’tirof etilgan. Shuningdek, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda xodimning o‘z kasbidan qoniqishi, xizmat ko‘rsatish shart-sharoitlari, imkoniyatlarini hisobga olish lozimligi, kasbiy vazifalarni bajarish xodimdan katta mas’uliyat va irodaviy kuchni talab qilishi, yuqori darajadagi javobgarlik hissi, sog‘lig‘i hamda hayoti uchun xavf-xatarning mavjudligi shaxsning ruhiy, jismoniy holatiga ta’sir etishi qayd etib o‘tilgan.




**2-rasm. Tezkor xodim shaxsining psixologik tuzilishi**

Quyida keltirilgan 3-rasmda esa respondentlarning o‘z kasbidan qoniqishiga xalaqit berishi mumkin bo‘lgan omillar ro‘yxati taklif qilingan. Jumladan: belgilanmagan ish vaqti; aholi huquqiy madaniyatining past darajasi; og‘ir va mas’uliyatli xizmat vazifalari (topshiriqlar); jinoyatchilikning o‘ssishi; xavotirlanish hissi; jamoadagi psixologik iqlim; sog‘lig‘i haqida o‘ylash; ish haqi; bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi; yuqori darajadagi javobgarlik; hayot va sog‘liq uchun yuqori xavf-xatarning mavjudligi; korrupsiya; mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizliklar va oilaviy muammolar keltirilgan, 3-rasm.

Respondentlarning o‘z kasbidan norozilik hissi sabablari tahlil qilindi. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining o‘z kasbidan qoniqishi uchun eng katta to‘siq bu me’yorlanmagan ish vaqti ekanligi kuzatildi. Bu kasbiy faoliyatning o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi Qonunning 30-moddasida: «Ichki ishlar organlari xodimlari ish vaqtining davomiyligi haftasiga qirq soatdan oshishi mumkin emas», deb belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, rasmdan ko‘rinib turibdiki, javoblar orasida yana ikkita yetakchi omillar, ya’ni «aholini huquqiy madaniyatining pastligi» va «jamiyatda jinoyatchilikning o‘ssishi» kabilar turibdi.



**3-rasm. Respondentlarning ishdan qoniqishi uchun xalaqit beradigan omillar haqidagi tasavvurlari**

Uch omildan faqat birinchisi – «me'yorlanmagan (belgilanmagan) ish vaqti» psixologik omil, qolgan ikkitasi – «aholini huquqiy madaniyatining past darajasi» va «jamiyatdagi jinoyatchilikning o'sishi» kabi ijtimoiy omillardir. Ichki ishlar organlari tizimida ish vaqti me'yorini aniq tartibga solishning murakkabligi, turli nostandart salbiy, ko'ngilsiz hodisalarni ish vaqti davomiga tegishli bo'lishi xodimlarda ruhiy zo'riqish holatlarini keltirib chiqarishi tabiiyligi aniqlandi. Shu nuqtai nazardan, xizmatni to'g'ri tashkil qilish, ish vaqti masalasini maxsus ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotda tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy faoliyati uchun muhim bo'lgan shaxslilik jihatlari o'rganildi. Buning uchun tadqiqotda CH. Osgudning «Shaxsiy semantik differensial» metodikasidan foydalanildi. Metodika tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining o'zini o'zi anglashi va shaxslilik mazmunida xulq-atvori va atrof-olamni idrok etishini baholash imkoniyatini berdi.

Metodikaning tadqiqotda foydalanilgan shaklida uchta baholash faktoriga, ya'ni baho, kuch va faollik faktorlarining har biriga aloqador yigirma bitta shaxs xarakteristikalarini baholash mezonini sifatida xizmat qilgan. Shaxs xarakteristikasini tavsiflovchilari qutbiy xarakterga ega. Shaxsiy semantik differensial bo'yicha olingan empirik qiymatlar tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining shaxsiga xos psixologik xarakteristikalarini tavsiflashga xizmat qildi, natijalar *1-jadvalda berilgan*.

Metodikaning empirik ko'rsatkichlari tezkor-qidiruv faoliyati bilan bevosita shug'ullanuvchi xodimlarning shaxsiy differentsiallaridagi o'xshashlik va tafovutlarni yoritishga imkon berdi. Statistik mezonlarga ko'ra metodikaning uchta baholash faktorlari (baho, kuch, faollik)ning umumiy holatida subyektlarda shaxsiy differentsiallarni ifodalovchi xarakteristikalarda farqlar aniqlanmadi. Ammo metodikaning baholash faktorlari tarkibiga kiruvchi shaxs jihatlari bo'yicha tafovutlar aniqlandi. Faktorlarning tarkibiy jihatlardan iborat yettita sifatlar bo'yicha tezkor-

qidiruv faoliyati xodimlari, rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslardan farqli jihatlariga ega ekanliklari empirik ko'rsatkichlarda aniqlandi.

### 1-jadval.

#### Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining «Shaxsiy semantik differensial» metodikasi bo'yicha olingan ko'rsatkichlari, Mann-Uitni U-mezoni asosida

Sifatlar va shkalalar	O'rtacha rang		(Mann-U-itnining U-mezoni)	p
	Tezkor-qidiruv faoliyati xodimi, n=120	ekpert baholashi, n=104		
Yoqimli - yoqimlisiz	100.07	99.93	4943,5	0,985
Kuchli - kuchsiz	100.98	99.02	4852,5	0,800
Sermulohaza - kamgap	99.90	100.10	4940,5	0,981
Mas'uliyatli - Mas'uliyatsiz	98.38	101.61	4789,5	0,652
Ko'ngilchan - o'jar	99.25	100.74	4876	0,850
Xushchaqchaq - indamas	97.84	102.14	4736,50	0,590
Mehribon - xudbin	106.14	93.93	4342,5	0,104
Mustaqil - tobe	102.38	97.65	4714,5	0,536
Faol-sust	105.03	95.03	8746	0,004**
Rahmdil - bemehr	97.76	102.22	4728	0,565
Qat'iyatli - jur'atsiz	108.37	98.64	7817	0,023*
G'ayratli - g'ayratsiz	106.54	93.53	8017,5	0,007**
Adolatli - adolatsiz	107.41	99.60	7752	0,037*
Shijoatli - shijoatsiz	108.61	97.42	9901,5	0,000**
Xotirjam - behalovat	101.84	98.18	4691,5	0,513
Samimiy - adovatli	102.42	97.61	4768	0,648
O'ziga ishonadigan - o'ziga ishonmaydigan	107.25	95.72	7529,5	0,014*
Kirishimli - odamovi	107.33	106.66	4710,5	0,546
Pok - nopok	100.08	99.93	4678	0,495
Mustaqil - mustaqil emas	103.37	94.60	7713,5	0,021*
Serjahl - vazmin	102.16	97.82	4784,5	0,675
Baho	102.09	98.90	4613,5	0,398
Kuch	101.72	98.26	4734	0,589
Faollik	100.07	99.93	4841	0,788

Izoh: \*-  $p \leq 0,05$ ; \*\* -  $p \leq 0,01$ .

Empirik ko'rsatkichlar tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari faollik faktori bo'yicha faolliklari (105,03;  $U=8746$ ;  $p \leq 0,01$ ) va g'ayratli (ishchanlik) (106,54;  $U=8017,5$ ;  $p \leq 0,01$ ) kabi sifatlar bilan rasmiy ravishda hamkorlik qiluvchi shaxslardan farq qildilar. Tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kundalik shug'ullanadigan ishlarining mazmuni va nomlanishini o'ziyoq ularning faol, ishchan, sustkashlikka yo'l qo'ymasliklarini taqozo etadi.

Ular baho faktori bo'yicha adolatlilik (107,41;  $U=7752$ ;  $p \leq 0,05$ )da qiyosiy o'rganilayotgan subyektlardan farqli ekanlar. Ularning faoliyatidagi adolatlilik

bevosita o‘zini hurmat qilishi, ongli munosabat va o‘z faoliyati natijalarining ijobiyligi bilan qoniqishini ifodalaydi.

Kuch faktori bo‘yicha to‘rtta statistik ahamiyatga ega jihatlar aniqlandi. Bu esa tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari qat‘iyatli (108,37;  $U=7817$ ;  $p\leq 0,05$ ), shijoatli (108,61;  $U=9901,5$ ;  $p\leq 0,01$ ), o‘ziga ishongan (107,25;  $U=7529,5$ ;  $p\leq 0,05$ ) va mustaqil (103,37;  $U=7713,5$ ;  $p\leq 0,05$ ) kabi jihatlar bo‘yicha ustuvorlikka ega ekanlar. Mazkur sifatlar tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari faoliyatida iroda muhim ekanligidan dalolat bermoqda. Ular o‘ziga ishongan, mustaqil, qiyin vaziyatlarda o‘z kuchiga tayanishlari bilan ajralib turar ekan. Uchta faktorning qolgan sifatleri esa deyarli tafovutga ega emas.

Empirik ko‘rsatkichlar asosida tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining shaxsiy differentsiallari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning faktorli tahlili har uchchala baholash faktorlarining korrelyatsion yuklamalari aniqlandi, natijalar *2-jadvalda keltirilgan*.

## 2-jadval.

### “Shaxsiy semantik differensial” metodikasi asosida tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida kuzatilgan sifatlar va omillar dispersiyasi ko‘rsatkichlari

Sifatlar	Omillar					
	1	2	3	4	5	6
Shijoatli			0,812			
Sermulohaza	0,761					
Mehribon	0,730	0,658				
Xushchaqchaq	0,610					-0,474
Mas‘uliyatli		0,514				0,793
Mustaqil		0,760				
Sermulohaza					0,738	
Mas‘uliyatli				0,886	0,586	
G‘ayratli					0,541	
Kuchli				0,554		
Qat‘iyatli						
Adolatli		0,695				
Qat‘iyatli			0,411			
Kuchli			0,521			
O‘ziga ishongan			0,558			
Kuchli		0,466	0,684			
Mustaqil			0,652			
Baho	0,505					
Kuch		0,532	0,554	0,430		0,479
Faollik		0,543			0,549	
<b>Dispersiya (%)</b>	<b>13,958</b>	<b>27,060</b>	<b>38,727</b>	<b>48,288</b>	<b>57,494</b>	<b>63,699</b>

Metodikaning tarkibidagi baholash komponentlarining faktorli tahlildagi ko‘rsatkichlari tezkor xodimlar faoliyatini belgilovchi oltita faktorlarga ajratildi. Faktorli tahlilga ko‘ra, birinchi faktorni to‘rtta yuqori yuklamali korrelyatsiya

koeffitsiyentlari tashkil etgan. Ushbu faktorda sermulohaza (0,761), mehribon (0,730) va xushchaqchaq (0,610) kabi jihatlar va ularning umumiy holatini baho faktori tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki, ushbu faktor xodimlarning hamkasblari bilan o‘zaro munosabatini shartlovchi jihatlardan tashkil topgan. Shuning uchun ushbu faktor «**Kommunikativ**» faktor deb nomlandi.

Ikkinchi faktor esa mehribonlik (0,658), mas’uliyatlilik (0,514), mustaqil (0,760) va adolatlilik (0,695), kuchli (0,466) va kuch (0,532) faktoridan iborat yuqori yuklamali koeffitsiyentlardan iborat. Bundan ko‘rinadiki, ushbu faktorni tashkil etuvchi jihatlar xodimlar xulq-atvorining barqarorligini ta’minlovchi sifatlar tashkil etmoqda. Shu sababli ushbu faktorni «**Xarakterologik xususiyatlar**» deb nomlash o‘rinlidir.

Uchinchi faktorni tashkil etuvchi yuqori yuklamalarni ko‘proq kuch faktoriga aloqador: shijoatlilik (0,812), qat’iyatlilik (0,411), kuchli (0,521), o‘ziga ishongan (0,588), mustaqil (0,652) kabi sifatlar qamrab olgan. Ushbu faktor tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida irodaviy sifatlar ham shaxsiy, ham kasbiy shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda. Shu bois ushbu faktor xodimlarning «**Irodaviy sifatlar**» faktori deb nomlandi.

To‘rtinchi faktorning mazmunini kuch, baho faktoriga aloqador jihatlar: mas’uliyatlilik (0,886), kuchli (0,554) va kuch faktori (0,549) tashkil etmoqda. Bu ushbu faktorlar irodaviy va shaxsning o‘z-o‘ziga hozirjavob bo‘lishini taqozo etadigan sifatni qamrab olmoqda. Shu sababli mazkur faktor «**Mas’uliyatlilik**» deb nomlandi. Mas’uliyatlilik shaxsning kasbiy o‘zini ichki tartibga solishning eng muhim psixologik mezoni hisoblanadi. Qiyin, murakkab va kutilmagan vaziyatlarda yuklatilgan vazifalarni bajarishda xodimdan kuch va iroda talab etilishi tabiiydir. Bu esa mas’uliyat bilan bog‘liqdir.

Beshinchi faktorni esa xodimlarning faollik faktori (sermulohaza-0,738 va g‘ayratli-0,541) bilan baho faktoriga tegishli jihatlarini (mas’uliyatlilik-0,586) tashkil qildi. Ushbu faktorlarga ko‘ra, tezkor-qidiruv faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xodimlar uchun tezkorlik, faollik, aniqlik muhim hisoblanadi. Shunga ko‘ra beshinchi guruhdagi komponentlar guruhi «**Faollik**» faktori deb nomlandi.

Oltinchi faktorda esa xodimlarda mas’uliyatlilikni kuch faktorini kuchaytirish hisobida ta’minlash mumkin ekan. Bunday holatda xodimlarda mas’uliyatni ortishi (0,793) hisobiga xushchaqchaqlik susayishi lozim ekan (-0,474). Mazkur faktor «**Kuch va mas’uliyat**» faktori deb nomlandi. Mas’uliyat faktori singari ushbu faktor tezkor-qidiruv faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xodimlarning kasbiy faoliyatida kuch, quvvat va mas’uliyat eng muhim psixologik faktorlardan biri vazifasini o‘tar ekan.

Bobning ikkinchi paragrafi «Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari motivatsiya sohasining empirik tahlili»ga daxldor ma’lumotlarga bag‘ishlangan.

Tadqiqot davomida olingan natijalar respondentlar o‘zlarining shaxsiy va kasbiy mahoratlarini rivojlantirishda ma’lum ijobiy natijalarga erishgan holda, o‘zlarining professionallik darajalarini yangi sifat ko‘rsatkichida rivojlantirishda keyingi yutuqlarni rag‘batlantirishga emas, balki ko‘proq erishilgan narsalarni saqlashga hamda bunga alohida e’tibor berishliklarini ko‘rsatadi. O‘zlarining erishgan ijobiy

pozitsiyalarini saqlab qolish istagi respondentlarning uzoq yillik kasbiy faoliyat tajribasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Empirik qiymatlar tahliliga ko'ra xodimlarning kasbiy motivatsiyasi komponentlari o'rtasidagi bog'liqlikni yoritish maqsadida korrelyatsiya tahlili *3-jadvalda berilgan*.

### 3-jadval.

#### Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy motivlari profilini ifodalovchi shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion bo'g'liqlik, Ch.Spirmen mezoni asosida

Shkalalar	Yaxshi ish sharoitlari va qulay muhitga bo'lgan ehtiyoj	Barqaror munosabatlar	Murakkab maqsadlar	Turli xillik, o'zgarish va rag'batlantirishga bo'lgan ehtiyoj	O'zini o'zi kamol toptirish
Yuqori ish haqi va moddiy mukofotlarga bo'lgan ehtiyoj	-0,321**	0,011	-0,071	-0,059	-0,6
Yaxshi ish sharoitlari va qulay muhitga bo'lgan ehtiyoj	1	-0,133	0,042	0,197*	-0,058
Maqsadning aniqligi		-0,024	0,045	-0,101	0,2
Sotsial aloqalar		0,218*	-0,064	0,079	0,025
Barqaror munosabatlar		1	0,009	-0,067	-0,029
E'tirof etilish			0,212*	-0,102	0,084
Murakkab maqsadlar qo'yish			1	-0,112	0,138
Xokimiyat va ta'sirchanlik				-0,101	-0,077
Turli xillik, o'zgarish va rag'batlantirishga bo'lgan ehtiyoj				1	0,108
Kreativlik					0,218*
O'zini o'zi kamol toptirish					1
Talabchanlik					

Izoh: \*-  $p \leq 0,05$ ; \*\* -  $p \leq 0,01$ .

Korrelyatsiya koeffitsiyentlariga ko'ra, xodimlarda «yuqori ish haqi va moddiy mukofotlarga bo'lgan ehtiyoj»ning o'sib borishi ish sharoiti har doim mos ravishda kuchayib borishi shart emas ekan ( $r = -0,321$ ;  $p \leq 0,01$ ).

Xodimlarda «yaxshi ish sharoitlari va qulay muhitga bo'lgan ehtiyoj»larining o'sib borishi hisobida «turli xillik, o'zgarish va rag'batlantirishga bo'lgan ehtiyoj»ni kuchayishiga olib kelar ekan ( $r = 0,197$ ;  $p \leq 0,05$ ). Ammo empirik tahlillarning o'rtacha rang tahlilida ham qayd etilgan ediki, mehnat sharoitlarini yaratish har doim ham xodimlar kasbiy faoliyati uchun asosiy intrensiv kasbiy faoliyat motivatsiyasi bo'la olmaydi.

Korrelyatsiya tahlilga ko'ra, tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari faoliyat motivlarining sotsial aloqalari komponentining ahamiyati oshib borgan sari, kasbiy faoliyatda barqaror munosabatlar shakllanib borar ekan ( $r=0,218$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bu esa xodimlarning kasbiy faoliyati uchun barqaror munosabat muhiti bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Barqaror munosabatlar xizmat faoliyati vazifalarini bajarishda yuqori ahamiyatli natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida ijtimoiy e'tirof etish motivatsiyasini ta'minlash hisobida murakkab xizmat maqsadlari, o'ziga ishonch va jasorat bilan bajarishga imkoniyat yaratilar ekan ( $r=0,212$ ;  $p\leq 0,05$ ). Soha xodimlarining kasbiy kamoloti va kasbiy shakllanishi borasidagi tadbirlarni tashkil etishda mazkur faoliyat profiliga xoslikni e'tiborga olish zarur.

Korrelyatsiya tahlilga ko'ra, xodimlarning faoliyat motivlari profilida kreativlikka bo'lgan motivatsiyaning ahamiyatlilik darajasini kuchaytirishi kasbiy faoliyatda o'zini o'zi kamol toptirish imkoniyatini ta'minlar ekan ( $r=0,218$ ;  $p\leq 0,05$ ). Tadqiqotimizda tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining motivatsiya komponentlari o'rtasida kam sonli korrelyatsiya aniqlangan bo'lsa-da, ammo kasbiy kamolot uchun muhim jihatlar aniqlangan.

Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining toifasiga ko'ra, muhim shaxsiy-kasbiy talabchanlik sifatleri o'rganildi. Xususan, talabchanlikning korrelyatsiyali tahlilining bir yo'nalishi rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarga berilgan ekspertlar bahosiga ko'ra amalga oshirildi, natijalar *4-jadvalda berilgan*.

Ekspertlar bahosiga ko'ra, rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning talabchanligini tavsiflovchi komponentlarida ham qator korrelyatsion ahamiyatga ega koeffitsiyentlar aniqlandi. Ularning o'zlaridagi shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarishdan qoniqishlari ta'minlanganligi sababli kasbiy faoliyat natijalarini baholashda e'tiborli ( $r=0,260$ ;  $p\leq 0,01$ ) va umumiy talabchanlik bilan uyg'unlashishga erishilgan ( $r=0,222$ ;  $p\leq 0,05$ ).

Ular o'zlariga yuklatilgan kasbiy talabni his etishdagi o'sishga erishishlari sababli, individual-psixologik kompetensiyalarini takomillashtirishlari ( $r=0,225$ ;  $p\leq 0,05$ ), shaxsiy nufuzga erishishda daxldorlik hissini tuyushlari ( $r=0,448$ ;  $p\leq 0,01$ ), kasbiy faoliyat natijalarini baholashdan samarali foydalanishlari ( $r=0,296$ ;  $p\leq 0,01$ ) va boshqalarning munosabatiga zimdan ahamiyat berib borishlari ifodalangan ( $r=0,440$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning faoliyatida individual-psixologik kompetensiyaning o'sib borishi esa o'zlarida shaxsiy nufuzni his etish ( $r=0,383$ ;  $p\leq 0,01$ )ga imkon berarkan, boshqalarni munosabatiga nisbatan hushyorlikni oshirishlari ( $r=0,226$ ;  $p\leq 0,01$ ), o'z-o'ziga munosabatlari faoliyatning nazorat qiluvchi asosiy mezonga aylanishi ( $r=0,235$ ;  $p\leq 0,05$ ) va bularning barchasi rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning umumiy talabchanlik darajasi tarkibiga birikishi ta'minlanarkan ( $r=0,281$ ;  $p\leq 0,01$ ). Ular o'zida shaxsiy daxldorlikni his etishi ta'sirida kasbiy faoliyat natijalarini baholashga nisbatan o'ta e'tiborli ( $r=0,336$ ;  $p\leq 0,01$ ) bo'lishi kuzatildi. Ya'ni, ular boshqalarning munosabatini kuzatuvchan ( $r=0,338$ ,  $p\leq 0,01$ ), o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarini kuchaytirib borishga ( $r=0,205$ ;  $p\leq 0,05$ ) va umumiy talabchanlik darajasi mos xatti-harakatni amalga oshirishga intiladilar ( $r=0,241$ ;  $p\leq 0,05$ ).

**Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining talabchanligi darajasi shkalalarini  
ekspert baholash ko'rsatkichlari**

Ekspert baholash mezonlari	Ijtimoiy-psixologik kompetensiya	Shaxsiy nufuz	kasbiy faoliyat natijalarini baholash	Boshqalarning munosabati	O'z-o'ziga munosabat	Umumiy talabchanlik
Shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarishdan qoniqish	0,078	0,052	0,260**	0,113	-0,143	0,222*
Hamjamiyatga mansublik	0,072	-0,8	-0,068	0,195	-0,150	-0,152
Kasbiy talabni boshdan kechirish	0,225*	0,448**	0,296**	0,440**	-0,104	-0,095
Ijtimoiy-psixologik kompetensiya	1	0,383**	0,192	0,226*	0,236*	0,281**
Shaxsiy nufuz		1	0,336**	0,384**	0,205*	0,241*
Kasbiy faoliyat natijalarini baholash			1	0,346**	0,085	0,128
Boshqalarning munosabati				1	-0,198*	-0,118
O'z-o'ziga munosabat					1	0,722**
Umumiy talabchanlik						1

Izoh: \*-  $p \leq 0,05$ ; \*\* -  $p \leq 0,01$ .

Shuningdek, rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslar kasbiy faoliyat natijalarini baholashdagi ustuvorlikka intilishi natijasida boshqalarga nisbatan sinchkovlik bilan munosabatda bo'lishni o'zlaridan talab qiladilar ( $r=0.346$ ;  $p \leq 0,05$ ).

Agar rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslar talabchanlik bobida boshqalarning munosabatiga e'tiborlilik bilan yondashishmasliklari oxir-oqibatda o'zlariga munosabatida ham bee'tibor bo'lishlariga olib keladi ( $r=-0.198$ ;  $p \leq 0,05$ ).

O'zlariga munosabatni kuchaytirishlari esa umumiy talabchanlik fonida rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslar kasbiy faoliyatining asosiy talabchanlik mezoniga aylanishi va umumiy talabchanlik tarkibiga mujassamlashganligi ( $r=0,249$ ;  $p \leq 0,05$ ) kuzatildi.

Rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning hamjamiyatga mansublikka erishishlari tufayli kasbiy faoliyat talabini hamkasblarining faoliyatiga qiyoslagan holda boshdan kechirishlari ijobiy tus olishi ( $r=0,262$ ;  $p \leq 0,01$ ), o'zining individual-psixologik kompetensiyasini ta'minlashga intilish xos ( $r=0,296$ ;  $p \leq 0,01$ ), kasbiy faoliyat natijalarini baholashdagi imkoniyatlari o'sib borishi ( $r=0,261$ ;  $p \leq 0,01$ ) ta'minlanar ekan.

Agar hamkorlik qiluvchi shaxslar kasbiy talabni boshdan kechirishga erishadigan bo'lsa-da, u holda o'zlaridagi individual-psixologik kompetensiyani rivojlantirish ularning birinchi rejasidan o'rin olishiga ( $r=0,290$ ;  $p \leq 0,01$ ), shaxsiy nufuzga ( $r=0,330$ ;  $p \leq 0,01$ ), kasbiy faoliyat natijalarini ahamiyatini baholay olishga ( $r=0,278$ ;  $p \leq 0,01$ ) erishganlar.

Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarning ayni damdagi individual-psixologik kompetensiyalari ularning shaxsiy nufuzining ahamiyatini ( $r=0,293$ ;  $p \leq 0,01$ ) va

boshqalarning munosabatiga bee'tibor emasliklarini ( $r=0,289$ ;  $p\leq 0,01$ ) kafolatlamogda.

Rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarni shaxsiy nufuzining ortib borishi ta'sirida kasbiy faoliyat natijalarini ahamiyatli baholashga e'tiborlilik ( $r=0,213$ ;  $p\leq 0,05$ ), boshqalarning munosabatini e'zozlash va shaxsiy-kasbiy o'sishda inobatga olish ( $r=0,214$ ;  $p\leq 0,05$ ) va o'ziga nisbatan munosabatini ham nazorat qilishga erishilar ekan ( $r=0,279$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Tahliliy materiallar tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining faoliyatida faoliyat motivatsiya profili va shaxsiy-kasbiy talabchanlik darajalarining ahamiyatli ekanligi va ularning ayni damda tarkib topganlik holatini izohlashga xizmat qila oldi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida «Ichki ishlar organlariga rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning psixologik xususiyatlari» aniqlandi. Unda subyektning individual-psixologik xususiyat aniqlash maqsadida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «Rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan nomzodlarni o'rganish» bo'yicha ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS), V.V.Golovachning hamkorlik kiluvchi shaxslarning shaxsiy xislatlarini o'rganish uchun mo'ljallangan maxsus «Shaxsiy differensiallikni o'rganish» metodikasi xamda G.Ayzenkning EPI so'rovnomasi (E.G'.G'oziyev, R.Toshimov modifikatsiyasi) dan foydalanildi.

### 5-jadval.

#### Rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning shaxsiy razvedkachilik xislatlari (% hisobida, n=104)

T/r	Xislatlar ro'yxati	Mezonlar					Rang
		1 ball	2 ball	3 ball	4 ball	5 ball	
11.	Fuqarolar bilan ishonchli muloqot o'rnata olish ko'nikma va malakalarining rivojlanganligi	11	6	23	19	41	I
22.	Maqsadga erishish yo'lidagi faollik va sobitqadamlik	2	21	33	22	22	IV
33.	O'ziga bo'lgan ishonch, imkoniyatlarga adekvat (to'g'ri, mos) baho berish va oqilona tavakkalchilik qilishga moyillik	6	19	46	12	17	V
44.	Kuzatuvchanlik	-	2	61	3	35	II
55.	Kutilmagan murakkab va qaltis vaziyatlarda o'zini tuta olish, boshqarish, chidamlilik va hissiy barqarorlik	-	10	31	35	24	III
66.	Ijodiy tafakkur, yaratuvchanlik va egiluvchanlik kabi sifatlarning mavjudligi	10	13	53	18	6	VIII
77.	Turli ijtimoiy rollarga kira olish qobiliyati va ko'nikmalarining mavjudligi	2	10	12	35	41	I
88.	Vaziyatlarni nisbatan obyektivlik, rostgo'ylik va haqiqatparvarlik	9	12	25	42	12	VII
99.	Ijtimoiy tuzumga qarshi qarash va ustanovkalarining yo'qligi	17	10	49	8	16	VI

Bugungi kunda rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslar yordamidan foydalanayotgan va bevosita ularga rahbarlik qilayotgan 104 nafar tezkor bo‘linmalar (ekspert) xodimlaridan o‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomadan ma‘lum bo‘lishicha, hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning atigi 50,5 foizi yaxshi rivojlangan muloqot ko‘nikmalariga egadirlar, ular turli toifadagi shaxslar bilan tez va oson, ishonchli aloqaga kirishadi hamda bunda qiyinchilik tug‘ilmaydi. Ya’ni, hamkorlik qiluvchi shaxslarning atigi to‘rt dan bir qismigina yuqori darajadagi faollik, topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishga intilish, tashabbuskorlik, o‘z kuchiga ishonish kabi fazilatlarini namoyon etar ekan, natijalar 5-jadvalda berilgan.

So‘rovnomadan olingan natijalarga ko‘ra, rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning «Fuqarolar bilan ishonchli muloqot o‘rnata olish ko‘nikma va malakalarining rivojlanganligi», «Turli ijtimoiy rollarga kira olish qobiliyati va ko‘nikmalarining mavjudligi» savollariga bergan javoblari eng yuqori foiz (41%)ni tashkil etdi. Bu, shaxslarda ma‘lum ma‘noda muloqotga kirishimlilik, turli ijtimoiy rollarga kira olish qobiliyati va ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi yuqoriligidan dalolat beradi. Undan keyingi o‘rinlarda, «Kuzatuvchanlik» (35%), «Kutilmagan murakkab va qaltis vaziyatlarda o‘zini tuta olish, boshqarish, chidamlilik va hissiy barqarorlik» (24%) kabi savollar tashkil etdi.


Tadqiqotda V.V.Golovachning «Shaxsiy differensiallikni o‘rganish» metodikasidan foydalandik. Ekspertlardan olingan natijalarga ko‘ra, eng yuqori 4,57 ball «Faollik» omilida kuzatildi va 54,3% ni tashkil etdi. Bu esa rasmiy ravishda hamkorlikka jalb etilayotgan shaxslarning o‘z vazifalarini bajarishga bo‘lgan mas‘uliyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ikkinchi o‘rinda esa «Kuch» omili bo‘lib, 2,13 ball (31,2 %) ga teng. Bu rasmiy ravishda hamkorlikka jalb etilayotgan nomzodlarda hissiy-irodaviy xislatlarining ma‘lum ma‘noda yuqori namoyon bo‘lishi kuzatilganligi bilan izohlanadi. Oxirgi o‘rinni «Baho» omili 0,58 ball bilan egallagan bo‘lib (14,5%), bu o‘z-o‘zini baholashning past darajada ekanligidan dalolat beradi, natijalar 6-jadvalda berilgan.

## 6-jadval.

### «Faollik», «Kuch», «Baho» omillari toifalarining ahamiyatlilik ko‘rsatkichlari, ball va % da

T/r	Omillar	Ahamiyatlilik darajasi (%)
1	Baho	4,57 ball – 54,3%
2	Kuch	2,13 ball – 31,2 %
3	Faollik	0,58 ball – 14,5%

G.Ayzenkning EPI so‘rovnomasi asosida ekspertlar bergan bahoga ko‘ra, hamkorlik qiluvchi shaxslarning 60% ekstravert, 30% ambivert, 10% introvert shaxslar ekanligi aniqlandi, 4-rasmga qarang.




**4-rasm. Rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari**

Ekspertlar tomonidan olingan ma'lumotlarga asosan, rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning ichki ishlar organlari bilan hamkorlik qilish motivlari o'rganildi.


Bu esa o'z navbatida, rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning jinoyatchilikka qarshi kurash uchun ichki ishlar organlariga chin ko'ngildan yordam berishga qanday motivlar ustuvorlik qilishini bilish imkonini berdi, *5-rasmga qarang.*

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy shakllanish dinamikasi**» deb nomlanib, unda tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy faoliyatdagi nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor uslublari, kasbiy faoliyat motivatsiyasi va talabchanlik jihatlarining shaxsiy-kasbiy kamolot bosqichlariga ko'ra, emotsional-irodaviy sohalarining shaxsiy-kasbiy faoliyatdagi tarkib topganlik holati yoritilgan.



**5-rasm. Rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning ichki ishlar organlari bilan hamkorlik qilish motivlari**

Bobning «Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor uslublarini empirik tadqiq etish» deb nomlangan paragrafida ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor uslublari empirik tadqiq etildi. Nizoli vaziyatlarda xodimning qanday usuldan foydalanishi kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Ko‘p hollarda nizoli vaziyatlardagi natijaviylikning o‘zi tomoniga og‘dirish uchun xodimlar turli usullardan ya’ni, kuch ishlatish, ruhiy tazyiq o‘tkazish, tajovuzkorlikka tayanish, ziddiyatlarni muttasil davomi etishiga yo‘l qo‘yish va boshqalardan foydalanadilar. Nizoli vaziyatlardan chiqishda tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari qaysi usuldan samarali foydalanishni aniqlashda K.Tomasning «Shaxs so‘rovnomasi» asosida tadqiqot amalga oshirildi, 6-rasmga qarang.



### 6-rasm. Tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining nizoli vaziyatlarda munosabat bildirish tiplari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar

Metodikaning birlamchi natijalari asosida korrelyatsiya amalga oshirildi. Tezkor-qidiruv faoliyat subyektlari nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda foydalanadigan uslublari o‘rtasidagi bog‘liliklar korrelyatsiyalar pleyadasi tarzda ifodalandi.

Olingan natijalarga ko‘ra, tezkor xodimlar nizoli vaziyatlarda murosa usulidan foydalangan vaqtlarida nizo subyektlarida vaziyatni bartaraf etish samaradorligi oshar ekan. Agar uni moslashish uslubi bilan birgalikda foydalanganda esa tomonlarning konsensusga erishishlari ( $r=0,598$ ;  $p\leq 0,01$ ) va hamkorlik uslub bilan ham nizoning ijobiy yechim topishiga imkoniyat hosil qilar ekan ( $r=0,510$ ;  $p\leq 0,01$ ). O‘z navbatida tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari nizoli vaziyatlarga moslashish bilan hamkorlik qilish uslublarini o‘zaro bog‘liqlikda foydalanadigan holatda ham nizoli vaziyatlarni yechimini topishi samarali bo‘lar ekan ( $r=0,579$ ;  $p\leq 0,05$ ).

Nizoli vaziyatlarda xodimlar tomonidan ziddiyatlardan qochish uslubi qo‘llaniladigan bo‘lsa, u holda raqib tomonidan qo‘llaniladigan nizo uslubi murosaga kelishni pasaytirib yubormoqda ( $r=-0,646$ ;  $p\leq 0,01$ ), vaziyatlarga moslashish uslubidan foydalanish esa nizoni bartaraf etish imkoniyatini cheklashiga ( $r=-0,666$ ;  $p\leq 0,01$ ), nizoli vaziyatlarni yechimini topishda hamkorlik qilish uslubidan foydalanishning imkoniyatini pasaytirib yuboradi ( $r=-0,0681$ ;  $p\leq 0,01$ ).

Xizmat faoliyati jarayonida tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari nizoli vaziyatlarda xulq-atvorning raqobat uslubiga tayanadigan bo‘lsalar ham hamkorlik

qilish uslubi nizoli vaziyatlarni yechimini topishga yoki uni yumshatishda samarali uslub vazifasini o'tay olmaydi. Xodimlarda raqobat uslubidan tizimli foydalanishi nizoli vaziyat subyektlarida moslashishni izdan chiqarishi ( $r=-0,757$ ;  $p\leq 0,01$ ) va murosaga kelish uslubini nizoning oldini olishda foydalana olmaslikka sabab bo'lar ekan ( $r=-0,717$ ;  $p\leq 0,01$ ). Agar xodimdagi nizodagi raqib uslubiga ustuvorlik berish oqibatida nizoni hamkorlik qilish uslubi bilan uyg'unlikda hal etishda chorasizlik kelib chiqishi kuzatilmoqda ( $r=-0,607$ ;  $p\leq 0,05$ ).

Bobning «Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari kasbiy kamolotining empirik ko'rsatkichlari» paragrafida ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining motivatsiya profili hamda shaxsiy va kasbiy talabchanlik sifatleri mehnat tajribasining o'sib borishiga ko'ra empirik jihatdan yoritilgan.

O'z navbatida mazkur paragrafda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining shaxsiy va kasbiy dinamikasini izohlashda faoliyat motivatsiyalari profilining shaxsiy-kasbiy kamolot bosqichi (mehnat staji)ga ko'ra dinamikasini o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Bobning «Ichki ishlar organlari faoliyatida turli xizmat tajribasiga ega bo'lgan tezkor xodimlarning emotsional-irodaviy sohasining empirik tahlili» nomli paragrafida xodimlarning emotsional-irodaviy sohasiga xos jihatlar o'rganildi.

Oldinga qo'yilgan gipotezani isbotlash uchun ma'lumotlarning miqdoriy va sifat jihatidan tahlili J.Teylorning «Xavotirlanish darajasini aniqlash» so'rovnomasi yordamida amalga oshirildi, 7-jadval.

Empirik ko'rsatkichlar xodimlarning mehnat stajiga ko'ra tahlil qilindi. Xodimlarning miqdoriy ko'rsatkichlari normal taqsimlanish qonuniga ko'ra noparametrik bo'lganligi sababli, farqlar Mann-Uitnining U-mezoni bo'yicha baholandi. «Xavotirlanish darajasini aniqlash» so'rovnomasiga ko'ra 10 yilgacha va 10 yildan yuqori mehnat stajiga ega bo'lgan xodimlarning xavotirlanishi o'rganildi.

#### 7-jadval.

#### Tezkor-qidiruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlarning xavotirlanish darajasi mehnat stajiga ko'ra ko'rsatkichlari

Rang	O'rtacha rang		Ranglar yig'indisi		Mann-Uitnining U-mezoni	p
	1-10 n=50	10-15, n=50	1-10, n=50	10-15, n=50		
Mehnat staji						
Xavotirlanish darajasi	65,77	35,23	3288,50	1761,50	486,5	0,000**

Izoh: \*\*- $p\leq 0,01$ .

Har bir shaxs yoki xodim hayoti va kasbiy faoliyatidagi turli xil darajadagi emotsional zo'riqlashlarni boshdan kechirishlari, vaqt va axborot tanqisligi, noaniq vaziyatlar, yagona ahamiyatli qaror qabul qilishning zarurligi sababli tezkor-qidiruv faoliyat xodimlarida mas'uliyatning kuchaytirishi hisobida nevrotizm va psixotizmni keltirib chiqarar ekan. Kasbiy tajribani ortib borishi sababli psixologik tolerantlik tarkib topadi. Bu holat tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining natijalarida ham

kuzatildi. Mehnat stajining o‘sib borishi xodimlarda xavotirlanishni susayishiga (35,23), aksincha yosh xodimlarda esa xavotirlanish yuqoriroq bo‘lishi (65,77) statistik mezonlarga ko‘ra tasdiqlandi ( $U=486,5$ ;  $p \leq 0,01$ ).

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, 10 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarda xavotirning namoyon bo‘lishi, hissiy emotsional holatlarda yuqori mas’uliyat hissasini namoyon qiladigan hodisa sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, xavotirlanish tezkor xodimlarning kasbiy vazifalarini bajarishi jarayonida konstruktiv ta’sir ko‘rsatadigan holat hamdir. 10 yildan yuqori ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarda esa malaka oshirish sifatlar tizimi sifatida, ustoz bilan doimiy ishlash, mulohaza yuritish, ishonchli muloqotga kirishish qobiliyatlari, shuningdek “shaxs psixologiyasi”ni bilish kabii omillar xavotirning kamroq namoyon bo‘lishiga tezkor xizmat faoliyatini samarali bajarishga, kasbiy ahamiyatga molik sifatlarni takomillashtirishga va rivojlantirishga yordam beradi.

Kasbiy faoliyatga ko‘ra xodimlarning kasbiy kamolotiga ko‘ra subyektiv nazorat darajasi kasbiy faoliyatining natijaviyligida irodaviy nazoratni belgilab beradi. Tezkor-qidiruv faoliyati vakolatli davlat organlari tomonidan jinoyatni aniqlash, oldini olish yoki ochish, yashiringan va bedarak yo‘qolgan shaxslarni topish, musodara qilinadigan mulkni tiklash, davlat uchun xavfli bo‘lgan voqealar va harakatlar to‘g‘risida ma’lumot olish maqsadida ommaviy va yashirin ravishda amalga oshiriladigan tadbirlarni taqozo etuvchi murakkab kasbiy faoliyat hisoblanadi. Shunga ko‘ra subyektiv nazorat darajalari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining kasbiy faoliyat va irodaviy sifatlari faoliyatni tashkil etishdagi xususiyatlarini xarakterladi, 8-jadval.

### 8-jadval.

#### Tezkor-qidiruv faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xodimlarning kasbiy kamolot darajasiga ko‘ra subyektiv nazorat darajasi

Shkalalar	Yosh xodimlar		Tajribali xodimlar		Styudent t- mezon
	x	$\sigma$	x	$\sigma$	
Umumiy internallik	5,71	2,48	7,75	3,13	2,68*
Muvaffaqiyatga nisbatan internallik	6,91	3,50	8,50	3,34	0,723
Muvaffaqiyatsizlikka nisbatan internallik	5,16	4,21	8,35	3,96	2,974**
Oilaviy munosabatlarga nisbatan internallik	5,33	3,60	7,69	2,66	-2,494*
Ishlab chiqarish munosabatlari sohasida internallik shkalasi	6,82	0,86	7,57	3,14	0,987
Shaxslararo munosabatga internallik	7,15	4,07	8,26	3,70	1,524
Salomatlikka nisbatan internallik	4,66	4,53	6,66	4,27	-2,567*

Izoh: \* -  $p \leq 0,05$ , \*\* -  $p \leq 0,01$ .

Muvaffaqiyatga nisbatan internallik bo‘yicha yosh va tajribali tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari o‘rtasida tafovut kuzatilmadi. Har ikkala toifa xodimlarda muvaffaqiyatga nisbatan subyektiv nazorat internallik darajasining yuqori diapazonidan o‘rin olgan (6,91 va 8.50). Bu statistik mezonga ko‘ra tafovutlikka ega

emas. Subyektiv nazorat bo'yicha har ikkala toifa xodimlari o'z hayotlarida bo'lgan barcha yaxshi narsalarga erishganliklari va kelajakda o'z maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodir ekanligini ifodalamoqda.

Muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan internallik bo'yicha ham ko'rsatkichlari yosh xodimlarda me'yorida (5,16) va tajribali xodimlarda esa yuqori diapazonda (8,36) ekan. Ular o'rtasidagi tafovutning statistik ahamiyatlilik darajasi  $r < 0,01$  ga teng. Yosh xodimlarda ham subyektiv nazoratning internallik chegarasi xosdir. Ular ayrim salbiy hodisalar va vaziyatlarga nisbatan subyektiv nazorat tuyg'usining rivojlanganligini ko'rsatadi, bu o'zini turli muvaffaqiyatsizliklar, noxushliklar va omadsizliklar uchun ayblash tendensiyasida namoyon bo'ladi. Tajribali xodimlar esa muvaffaqiyatsizlik sabablarini chuqur tahlil eta oladilar va o'zlari sababchi bo'lgan jihatlarni e'tirof etadilar. Muammolarni yechimini topishda va omadsizliklardan xalos bo'lishda o'zlariga tayanadilar.

Faoliyat natijalariga internallik bo'yicha yosh va tajribali xodimlarning ko'rsatkichlarida statistik tafovut kuzatilmadi. Ularning subyektiv nazorat darajalari internallik xarakteriga ega (6,82 va 7,57). Bu esa yosh va tajribali xodimlar kasbiy faoliyat natijalariga erishishlarida, ishlab chiqarishdagi faoliyatini tashkil etishda, jamoadagi munosabatlarni rivojlantirishda va rag'batlantirishda muhim omil bo'lishini belgilaydi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi «**Jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini takomillashtirish yo'llari**» deb nomlangan bo'lib, uning birinchi paragrafida «Jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti subyektlari faoliyatining samaradorlik yo'llari» o'rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, to'rtinchi bobning ikkinchi paragrafi «Jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini rivojlantirish istiqbollari»ga bag'ishlandi. Unda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini amaliyotda qo'llash muammolari va ularni samaradorligini oshirish mexanizmlari hamda jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarining psixologik jihatlarini rivojlantirish istiqbollari yoritib berildi. Bobning uchinchi paragrafida «Jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini takomillashtirish modeli» o'rganildi.

## XULOSA

«Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini»ni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi **xulosalar** ishlab chiqildi:

1. Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarida qadriyatlar tizimi, regulyativ sohasi, individual-psixologik jihatlar va ijtimoiy tajribalarini integratsiyalashtirish orqali kasbiy dispozitsiyani shakllantirishda shaxsiy differensial maydonning adolatlilik (baho), qat'iyatlilik, shijoatlilik, o'ziga ishonganlik, mustaqillik (kuch) va g'ayratlilik (faollik) komponentlari xodimlar xulq-atvori barqarorligini ta'minlashning yetakchi omillari ekanligi aniqlandi.

2. Sotsial aloqalarga salohiyatlilikning barqaror munosabatlar omili sifatida e'tirof etilishi, jur'atlik, jasurlik, kreativlik esa o'zini o'zi kamol toptirtiruvchi kabi

intensiv motivlar ta'sirida o'zlariga nisbatan talabchanlikning o'sib borishi sababli tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida «inson – jamiyat – inson» munosabatlarining rivojlantirilishi natijasida ularning murakkab xizmat vazifalarini ishonchli va jasorat bilan bajarish imkoniyatlarini kuchaytirganligi empirik dalillandi.

3. Kasbiy tajribalarining ortib borishi hisobiga vaziyatlarga moslashish va hamkorlik usullaridan foydalanishni o'zlashtirishlari sababli faoliyatdagi nizolarni bartaraf etishda konsensusga va xavotirlanishni susaytirishga erishishlarida muvaffaqiyatga, muvaffaqiyatsizlikka va salomatlikka nisbatan internalliklar tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida ustuvor subyektiv nazorat jabhalari sifatida shakllanishi isbotlandi.

4. Ishlovga olingan shaxs bilan ishonchli psixologik aloqa o'rnatishda ularning rejalari, maqsadlari, qadriyatlari, ehtiyojlari, ustanovka va motivatsiyalarini aniqlashning ekstren usullariga tayanishlari orqali tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlanishi xodimlarni ko'plab puxta tayyorlanayotgan va niqoblangan jinoyatlarning oldini olish imkoniyatlarini kuchaytirishi aniqlandi.

5. Jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor-qidiruv faoliyati mutaxassislari kasbiy faoliyatini optimallashtirish uchun ularning kasbiy-shaxsiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim kasbiy-shaxsiy, individual sifatlarini aniqlovchilari va rivojlanish istiqbollarini, kasbiy faoliyat predmeti va ob'ektining uyg'unlashtirishni, kasbiy ko'nikma va malakalarni, layoqatlar va afzalliklarni, kasbiy vazifalari va ish shakllarining boshqa kasblar bilan aloqadorligini hamda mutaxassislarni tayyorlash jarayonini tavsiflovchi professiogrammasi tizimli ishlab chiqildi.

6. Tezkor xodimlar faoliyatini belgilovchi oltita faktor mavjudligi kuzatildi. Ular xodimlarning hamkasblari bilan o'zaro munosabatini shartlovchi xususiyatlardan tashkil topgan «Kommunikativ», xulq-atvor barqarorligini ta'minlovchi sifatlardan tashkil topgan «Xarakterologik xususiyatlari», ham shaxsiy, ham kasbiy shakllanishi uchun muhim sifatlardan ekanligini tasdiqlovchi «Irodaviy sifatlari», shaxsning o'zini o'ziga hozirjavob bo'lishini taqozo etadigan sifatlarni qamrab olgan «Mas'uliyatlilik», jinoiy xatti-harakatlarni tezkorlik bilan prognozlash, ularning tabiatini aniqlash, oldini olish yoki fosh etishni ta'minlovchi «Faollik» faktori, tezkor-qidiruv faoliyati subyektlariga yuklatilgan xizmat vazifalarining murakkabligi, ularda jiddiylik va hozirjavoblikni ta'minlovchi «Kuch va mas'uliyat» omillaridan iboratligi aniqlandi.

7. Kasbiy faoliyat natijalariga ko'ra e'tirof etilish istagi tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarga qaraganda muhim ekanligi, aks holda boshqalarning e'tirofiga ko'ra faoliyatni olib borilishi oshkorligi esa, ekspertlarning bahosiga ko'ra, rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ularning faoliyatini izdan chiqishiga sabab bo'lishi, tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari esa boshqa odamlarning e'tirofiga sazovor bo'lish shaxsning xizmatlari, yutuqlari va muvaffaqiyatlarini qadrlash zarurati asosida hamkasblar orasida ijtimoiy mavqega ega bo'lish istagi bilan bog'liqligi isbotlandi.

8. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari nizoli vaziyatlarda murosara kelish uslubidan foydalangan vaqtlarida nizo subyektlarida vaziyatni bartaraf

etish samaradorligini, u o'z navbatida, moslashish uslubi bilan birgalikda foydalanishi tomonlarning konsensusga erishishlari va hamkorlik qilish uslubi bilan ham nizoning ijobiy yechim topishiga imkoniyat tug'dirishi, shuningdek, moslashish bilan hamkorlik qilish uslublarini o'zaro bog'liqlikda foydalanganda ham nizoli vaziyatlar yechimini topishi samarali bo'lishi, empirik xususiyatdan tasdiqlandi.

9. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati xodimlari «kasbiy salohiyatni ro'yobga chiqarishdan qoniqish»ga erishishlari sababli professional talablarni boshdan kechirishlari, kasbiy kompetensiyani ta'minlashga va kasbiy faoliyat natijalarini baholash imkoniyatlari kuchaytirilishiga erishishlari kuzatildi. Ekspertlar bahosiga ko'ra esa, rasmiy ravishda hamkorlik qilish istagini bildirgan shaxslarning shaxsiy talabchanligini tavsiflovchi komponentlarini korrelyatsion aloqalarida ularning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdan qoniqqanliklari kasbiy faoliyat natijalarini baholashda e'tiborli bo'lishlari; o'zlariga yuklatilgan kasbiy talablarni his etishda o'sishga erishishlari; shaxsiy nufuzga erishish hisobida daxldorlik hissini tuyishlari orqali faoliyat natijalarini baholashdan samarali foydalanishlari va boshqalarning munosabatiga zimdan ahamiyat berib borishlari aniqlandi.

10. Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari har ikkala toifa shaxslarining faoliyatida mehnat staji asosida xodimlarning shaxsiy-kasbiy motivlari profili tahlilida «yuqori ish haqi va moddiy mukofotlarga bo'lgan ehtiyoji» bo'yicha ko'rsatkichlarda tafovutlar statistik farqni aks ettirmadi. Bu xodimning o'z kasbiy faoliyatlaridan mehnat stajidan qat'i nazar, yuqori moddiy ta'minlanganlik va rag'batga ehtiyojlari mavjudligidan dalolat berdi.

11. Turli xil darajadagi emotsional zo'riqishlarni boshdan kechirishlari, vaqt va axborot tanqisligi, noaniq vaziyatlar, yagona ahamiyatli qaror qabul qilishning zarurligi sababli tezkor-qidiruv faoliyati xodimlarida mas'uliyatni kuchaytirishi hisobida nevrotizm va psixotizm vujudga kelar ekan. Ularda kasbiy tajribaning ortib borishi sababli xavotirlanish, nevrotizm va psixotizm bilan bog'liq emotsional zo'riqishlarga nisbatan psixologik tolerantlik shakllanarkan.

12. Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy tavsifini to'liq tizimini aks ettiruvchi professiogramma tuzilmasiga asoslanib, kasbiy saralashni tartibli amalga oshirish zarurligi o'rganildi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining psixologik jihatlarini takomillashtirish modelini ishlab chiqishga erishildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv bo'linmalari xodimlarining kasb mahorati, ularning maxsus huquqiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, jinoyatchilikka qarshi kurashishda kasbiy va psixologik tayyorgarligini kuchaytirish uchun odamlar bilan muloqot qilish, suhbatdoshni kuzatish, psixologik barqarorlik va o'ziga ishonch, tajovuzkorlik holatlariga qarshilik ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixotexnika usullarini joriy etish zarur.

2. Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari kasbiy faoliyatining samaradorligini ta'minlashda tezkor-qidiruv faoliyatida jinoyatchining psixologik portretini tuzish, tezkor-qidiruv faoliyatida individual tezkor-tergov harakatlari paytida (tekshirish, so'rov qilish, qarama-qarshilik, qidiruv) profayling usullaridan foydalanish kurslarini tizimli tashkil etish muhim.

3. Tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari aholining turli guruhlar bilan tezkor munosabat o'rnatish jarayonida, xususan, ayollar, bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, voyaga yetganlar va keksa yoshdagilar psixologiyasining xususiyatlarini bilishi; aholi vakillarining turli ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini bilish, har xil mavzuda suhbatlasha olishi; vazminlik va xotirjamlikni saqlash, nizoli vaziyatning oldini olish va bartaraf etish usullari bilan qurollantirish yuzasidan psixologik ko'rsatmalar ishlab chiqish va tatbiq etish maqsadlidir.

4. Ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv faoliyati yo'nalishiga mutaxassis kadrlar tayyorlashni samarali psixologik qo'llab-quvvatlash maqsadida ichki ishlar organlari oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni davomida «Muomala psixologiyasi» va «Nizo psixologiyasi» kabi maxsus kurslarni kiritish kerak.

5. Ichki ishlar vazirligi malaka oshirish institutida tezkor-qidiruv faoliyati subyektlarining kasbiy-shaxsiy kamolotiga yo'naltirgan va kasbiy so'nish profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik trening kurslarini tatbiq etish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ИМЕНИ НИЗАМИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
НИЗАМИ**

**ДУШАНОВ РУСТАМ ХУЖАНОВИЧ**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СУБЪЕКТОВ ОПЕРАТИВНО-  
РОЗЫСКНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ**

**19.00.03 – Психология профессиональной деятельности человека  
(юридическая психология)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc)  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2021.1.DSc/P43.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете имени Низами.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Научного Совета ([www.tpdu.uz](http://www.tpdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:** **Шоумаров Гайрат Бахромович**  
доктор психологических наук, академик

**Официальные оппоненты:** **Хайитов Ойбек Эшбоевич**  
доктор психологических наук, профессор

**Сатторов Эркин Ниязметович**  
доктор психологических наук, доцент

**Исмаилов Исомиддин**  
доктор юридических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета № PhD.03/30.12.2021.P.26.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете имени Низами (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, дом 27. Тел. (+99871) 276-82-32; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета. (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, дом 27. Тел. (+99871) 276-82-32).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года  
(протокол реестра рассылки № \_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Ф.А. Акрамова**  
председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, доктор психологических наук,  
профессор

**Н.Б. Атабаева**  
ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
психологических наук, профессор

**З.Т. Нишанова**  
председатель научного семинара при Научном  
совете по присуждению ученых степеней,  
доктор психологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Расширение в мире преступлений в соответствии с условиями их совершения, сферы общественной жизни, субъективный характер преступления, мотивы и цель преступления, превращает во всё большую актуальность уделение особого внимания вопросам профессионализации кадров в правоохранительной системе и их психологической готовности к борьбе против преступности. Поэтому несомненно то, что «...Учитывая, что оперативно-розыскная деятельность является приоритетной в организации деятельности многих подразделений Министерства внутренних дел, например, уголовного розыска, борьбы с организованной преступностью, экономических преступлений, оперативно-розыскных подразделений, это рождает потребность важной профессиональной подготовки в области предупреждения преступлений ...»<sup>7</sup>. В связи с этим становится одной из актуальных проблем обеспечение результативности деятельности субъектов оперативно-розыскной деятельности путём формирования у них личностно-профессионального мастерства проведения оперативно-розыскных мероприятий, направленных на обеспечение профессиональной и психологической готовности к борьбе против преступности, предупреждение и раскрытие преступлений, выявление и задержание преступников.

В научных исследованиях, проводимых в мире, особое внимание уделяется научным исследованиям по обеспечению профессионального и личностного роста специалистов различных областей, развитию индивидуально-психологических аспектов и реализации психологических возможностей личности. К этому направлению относятся вопросы выявления и развития в профессиональной деятельности таких имеющих личностно-профессиональную значимость необходимых для оперативно-розыскной деятельности психологических аспектов субъектов оперативно-розыскной деятельности, как наблюдательность, психологическая устойчивость и уверенность в себе, которые обеспечивают общительность, умение и желание общаться с людьми, выявление изменения тембра голоса, жестов и мимики, служащих эффективности оперативно-розыскной деятельности.

В последние годы в нашей республике определены стратегические задачи, направленные на формирование нового облика сотрудников правоохранительных органов и их деятельности, направленной на эффективную защиту интересов, человеческого достоинства, прав и свобод народа, и для этого создаются необходимые основы: «Остается самой приоритетной задачей усиление контроля за оперативно-розыскной и следственной деятельностью, внедрение действенных механизмов защиты ценностей и свободы граждан», основываясь на такие принципы, как «коренное реформирование системы учета в правоохранительных органах сообщений о преступлениях, использование

---

<sup>7</sup> Алексеев В.В. и др. Правовые основы оперативно-розыскной деятельности: учебное пособие. - М. ЮНИТИ-ДАНА.-2017. С.7.

современных методов предотвращения, случаев сокрытия преступлений...», «...превращение органов внутренних дел в профессиональную, народную структуру как надежного защитника народа и направление их на целенаправленную работу с населением»<sup>8</sup>, созданы возможности для поиска новых теоретических решений, направленных на углубление научных исследований по освещению психологических аспектов субъектов оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации широкомасштабных стратегических мер, указанных в Законах Республики Узбекистан от 1 мая 2023 года № ЗРУ-837 «О Конституции Республики Узбекистан», от 16 сентября 2016 года «Об органах внутренних дел», от 25 декабря 2012 года «Об оперативно-розыскной деятельности», Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 10 апреля 2017 года № УП-5005 «О мерах по коренному повышению эффективности деятельности органов внутренних дел, усилению их ответственности за обеспечение общественного порядка, надежной защиты прав, свобод и законных интересов граждан», постановлениях Президента Республики Узбекистан от 20 января 2023 года № ПП-10 «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением», от 15 апреля 2021 года № ПП-5076 «О мерах по внедрению качественно новой системы подготовки профессиональных кадров для органов внутренних дел», от 29 ноября 2017 года № ПП-3413 «О мерах по коренному совершенствованию порядка работы с кадрами органов внутренних дел и организации их службы», от 16 августа 2017 года № ПП-3216 «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации сотрудников органов внутренних дел», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 июня 2019 года № 472 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров в области психологии и профилактики правонарушений в обществе», а также других нормативно-правовых документах по данной деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии в республике I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства, и пути их реализации».

---

<sup>8</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана в 2022-2026 годы» / Национальная база данных законодательства, 29.01.2022 г., № 06/22/60/0082, 18.03.2022 г.

## **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>9</sup>.**

Научные исследования, направленные на исследование психологических аспектов субъектов оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел проводятся в ведущих научных учебных организациях и научных центрах мира, в том числе, Национальном юридическом институте (Соединённые Штаты Америки), Национальной высшей школе офицеров полиции (Франция), Национальном исследовательском институте полицейских наук (Япония), Пекинском университете (Китай), Тель-Авивском университете (Израиль), Всероссийском научно-исследовательский институте Министерства внутренних дел России (Российская Федерация), Московском университете Министерства внутренних дел России (Российская Федерация) и Омской академии Министерства внутренних дел России (Российская Федерация).

На основе проведённых в мире исследований по выявлению проблем психологических аспектов субъектов оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел получены, в частности, следующие научные результаты: на основе систематизации деятельности правоохранительных и нравственно исправительных учреждений, а также сотрудников, изучающих криминологию, признаки преступного поведения созданы программы предупреждения преступлений и их оперативного раскрытия (Национальный юридический институт, Соединённые Штаты Америки); созданы методы обеспечения безопасности сотрудников и адаптации к служебной деятельности путём организации Национального высшего центра профессионального формирования полицейских (Национальная высшая школа офицеров полиции, Франция); путём внедрения информационных технологий, методов идентификации и анализа деятельности усовершенствован порядок реализации оперативно-розыскной деятельности сотрудников (Национальный исследовательский институт полицейских наук, Япония); на основе сочетания теоретических (управление, миротворчество, уголовно-процессуальное, общее и специальное уголовное право, некоторые элементы административного права, набор и подготовка судебных исполнителей) и практических (искусство боя и самооборона, стрельба, различные виды спорта, в том числе, на занятия на выносливость) образовательных программ профессиональной подготовки сотрудников полиции усовершенствована система профессионального роста работников (Тель-Авивский университет, Израиль); основываясь на разработку государственной концепции борьбы против преступности, выявлены актуальные направления стратегического развития оказания оперативно-розыскных услуг Министерства внутренних дел (Всероссийский научно-исследовательский институт Министерства внутренних дел России, Российская Федерация); путём внедрения технологий в сфере информационной безопасности выявлены методы эффективной подготовки сотрудников для подразделений оперативной полиции и сотрудников полиции по охране общественного порядка, международной правовой защиты (Московский университет Министерства внутренних дел

---

<sup>9</sup> <https://nij.ojp.gov/>, <https://www.ensp.interieur.gouv.fr/index.php>, <https://www.npa.go.jp/nrips/en/>, <https://english.pku.edu.cn/>, <https://english.tau.ac.il/>, <https://ru.wikipedia.org/wiki/>, <https://ru.wikipedia.org/wiki/>; <https://ru.wikipedia.org/wiki/> и другие источники.

